



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ALISHER NAVOIY IJODIDA TASAVVUFİY G'UYALAR TALQINI

Jumaniyazova Intizor Atabekovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, (PhD)

Annotatsiya

shariflarning badiiy talqini tahlil qilingan. Navoiyning asarlarida inson kamoloti, nafsni tiyish, axloqiy poklik, ustozga sadoqat va murshidga ergashish kabi tasavvufiy qarashlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganini yoritadi. Ayniqsa, “Arbain”, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” hamda “Majolis un-nafois” asarlaridagi diniy-ma'rifiy mazmun va hadislarning she'riy sharhi misollar asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada Navoiyning ustozlarga bo'lgan hurmati, naqshbandiya tariqatiga munosabati hamda komil inson tarbiyasidagi qarashlari tahlil etilgan. Maqola yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Navoiy merosining ahamiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, tasavvuf, hadis, Qur'oni Karim, naqshbandiya, komil inson, murshid, ustoz-shogird an'anasi, nafs tarbiyasi, ma'naviyat, axloqiy fazilatlar, “Xamsa”, “Arbain”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, hadis talqini, tasavvufiy g'oyalar.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СУФИЙСКИХ ИДЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

Жуманиязова Интизор Атабековна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, (PhD)

Аннотация

В статье анализируется художественная интерпретация суфийских идей и хадисов в творчестве Алишера Навои. Освещается, что в произведениях Навои идеи духовного совершенства человека, обуздания нафса, нравственной чистоты, преданности наставнику и следования муршиду выражены с высоким художественным мастерством. На примере произведений «Арбаин», «Хамса», «Лисон ут-тайр», «Махбуб ул-кулуб» и «Маджалис ун-нафаис» раскрывается религиозно-просветительское содержание и поэтическое толкование хадисов. Также анализируются уважительное отношение Навои к своим учителям, его связь с тарикатом Накшбандия и взгляды на воспитание совершенного человека. Статья демонстрирует значение наследия Навои в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: Алишер Навои, суфизм, хадис, Коран, Накшбандия, совершенный человек, муршид, традиция наставник–ученик, воспитание нафса, духовность, нравственные качества, «Хамса», «Арбаин», «Лисон ут-тайр», «Махбуб ул-кулуб», толкование хадисов, суфийские идеи.

INTERPRETATION OF SUFI IDEAS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Jumaniyazova Intizor Atabekovna

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, (PhD)

Abstract

The article analyzes the artistic interpretation of Sufi ideas and prophetic hadiths in the works of Alisher Navoi. It highlights how concepts such as human perfection, self-discipline, moral purity, devotion to a teacher, and following a spiritual guide are expressed with remarkable artistic mastery in Navoi's writings. Particular attention is given to the religious and educational content and poetic interpretation of hadiths in Arbain, Khamsa, Lison ut-Tayr, Mahbub ul-Qulub, and Majolis un-Nafois. The study also examines Navoi's respect for his teachers, his relationship with the Naqshbandi order, and his views on the upbringing of the perfect individual. The article demonstrates the significance of Navoi's heritage in the spiritual and moral education of the younger generation.

Keywords: Alisher Navoi, Sufism, Hadith, Holy Qur'an, Naqshbandiyya, perfect person, murshid, teacher-disciple tradition, self-discipline, spirituality, moral virtues, Khamsa, Arbain, Lison ut-Tayr, Mahbub ul-Qulub, interpretation of hadiths, Sufi ideas.

Alisher Navoiy yoshlarni ma'naviy barkamol, ezgu fazilatlar sohibi bo'lib tarbiyalanishida qimmatli boy meros qoldirdi. Bu asarlar millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san'at, axloqiy yuksaklikka intilish, mehr-muruvvat adolat va sahovat g'oyalari bilan yo'g'rilgandir.

Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: “Navoiyni o‘qish, Navoiyni anglash, Navoiyni chuqur bilish – o‘zligimizni anglash desak, bu – to‘g‘ri gap”, -

deya ta’kidlar ekan, shoir asarlariga bo‘lgan talab va ehtiyoj biror asrda ham kam bo‘lmagan. Navoiy asarlaridagi chuqur falsafiy ma’nolar zahirida Qur’oni Karim oyatlari va hadisi shariflar aks etadi. Ko‘pchilik buyuk insonlar Qur’oni Karim oyatlari va Rasululloh sollallohu alayhi vassalamning hadislaridan aytar ekanlar, ularning mazmunini yoritish va izohlash uchun Navoiy baytlaridan iqtibos keltirishadi. Navoiy ijodi tasavvufiy va diniy mazmunga boy bo‘lib, uning lirikasi (asosan, “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi g‘azallar, ruboiylar)da hadislar to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki ramziy ma’nolar orqali talqin etiladi. Navoiy hadislarini ochiq keltirmay, ularning mohiyatini ishqiy-tasavvufiy timsollar orqali ifodalab bergan.

“Garoyib us – sig‘ar” devoni debochasida Navoiy: “Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotimig‘akim, “innash – she’ra lahikmatin va innal – bayona lasihrun” (albatta, she’rda hikmat va bayonda sehr bor”) nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti”), - deydi. Demak, mutasavvuf shoirning bu so‘zlari Rasululloh hadisi sharifiga asoslangan. [1; 45-46-b]

Navoiy asarlariga oyat va hadislar asosida sharhlar yozish lozim. Shunda shoirning maqsadi, asarning mohiyati aniq ayon bo‘ladi. Hazrat tomonidan yaratilgan “Arbain” asarining mohiyatini islom dini qoida va asoslari tashkil etishi sir emas. Mutafakkir hadislarining mohiyatini qit’a shaklida yoritir ekan, ularda dinni to‘g‘ri anglash, uning talablarini to‘g‘ri bajarish, savob va gunoh, halol va haromni ajrata olish singari axloqiy fazilatlarni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Navbatdagi hadis ham Navoiyning badiiy mahoratini yana bir karra ko‘rsatadi. Zero shoir hadislarini she’riy usulda kitobxonga sodda va tushunarli holda yetkazishdan tashqari uning oson tushunilishi va yodda saqlanishini ham nazarda tutgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Pahlavonlik kurash tushish bilan bo‘lmaydi. G‘azab chog‘ida o‘z nafsini qo‘lga ola bilgan odamgina pahlavondur”, dedilar”. Mana shu hadisni badiiy jihatdan sharhlab, she’riy misralarda aks ettiradi.

Emas ul pahlavon o‘z qadrin
Bosh uza eltibon nigun qilg‘ay.
Pahlavon oni bilki, yetsa g‘azab,
Nafsi ammorani zabun qilg‘ay.

O‘z qadrini boshi uzra ko‘tarib, keyin uni yerga urgan kishi pahlavon emas. Balki yomonlikka buyuruvchi nafsni yenggan kishini pahlavon, deb bil. Demak, hadisi sharifda, muqaddas oyatlarimizda ham insonning nafs qutqulariga qarshi kurashi, g‘azabi kelganda o‘zini tiya bilish, hilmni, pok ezgu fazilatlarni egallash uchun harakat qilishi belgilab berilgan.

Hazrat Navoiy har bir katta asaridan tortib kichik baytlarini Qur’oni karim oyatlaridan foydalanib yaratadi. Masalan, “Xamsa” asarining har bir baytida ham bunga ko‘zimiz tushadi va undagi purhikmat ma’nolar insonni hayron qoldiradi. “Xamsa” asarini yaratishda o‘zidan oldingi ustozlar, xamsanavislar – Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy vasfida so‘z yuritadi va “Hayrat ul-abror” dostonining kirish qismida XIII bobda shunday baytlarni keltiradi:

It kibi chun pastligim chog‘ladim.
O‘zni biyiklar ipiga bog‘ladim.
Bo‘lsa alar ozimi dashti adam,
Men ham o‘lay soya kabi hamqadam.
Kahfi baqo ichra alar bo‘lsa gum,
Man ham o‘lay robi’uhum kalbuhum.

Bu misralarda juda go‘zal tashbeh va qiyoslashni ko‘ramiz. Ya’ni Hazrat Navoiy o‘zini ustozlariga qiyoslab ko‘rib, itga o‘xshab qolgandek his qiladi. U o‘zini ustozlardan juda past bo‘lib qolgandek ko‘radi. Itning bo‘ynida arqoni bo‘ladi, shu arqonni buyuklarning, ya’ni ustozlarning qo‘lidagi ipiga bog‘ladim. Shularga ergashib ketaveraman. Ular Adam sahrosiga qasd qilib kirib ketsalar, men ham ularning orqasidan soya kabi hamqadam bo‘lib kirib ketaveraman. Kahfi baqo ichra alar bo‘lsa gum misrasidagi Kahfi baqo Qur’oni Karimda kelgan as’hobi Kahfning g‘oridir. Agar ular baqo g‘ori tomonga qarab kirib ketaversalar, shu yerda uxlasalar, men ham ularning biri bo‘laman, deyapti. Men ham o‘lay robi’uhum kalbuhum. Qur’oni Karimda mazkur “robi’uhum kalbuhum” (ularning to‘rtinchilari itlaridir”) iborasi bor. Oldingi misralarda itni misol qilgan shoir, oxirida Kahf g‘oridagi o‘sha it menman, deya misol keltiradi shoir. Bu baytda Navoiy Qur’oni Karimda zikr qilingan As’hobi Kahf hikoyasiga ishora qilinadi. Shoir o‘zining holatini shunga o‘xshatishga harakat qiladi. Kahf egalari qissasida o‘z iymon-e’tiqodini

saqlash maqsadida yurtini tark etib, g'orga yashiringan yigitlar va ularning ortidan yurib ulug'martaba topgan, ular bilan birga uch yuz yil uxlab, yana hayotga qaytgan va tarixda o'sha ulug' insonlar qatori esga olinadigan it haqida so'z ketgan. Navoiy mazkur baytlarda o'zining ma'naviy ustozlarini o'sha yigitlarga, o'zini esa ularga ergashgan vafoli itning holatiga o'xshatmoqda. Navoiyning har bir asarida ustozlarga bo'lgan muhabbat va hurmatni ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy shogird sifatida ustozlarga sadoqat, muhabbat va fidoiylilikda go'zal ibratlar qoldirgan. Har bir ishda ustozdan maslahat olish, uning ma'naviy madadiga suyanish, duosini so'rash Alisher Navoiyga xos fazilatlaridan biri edi. Shuning uchun ham buyuk zot ustozlar e'tirofi va e'tiboriga ega bo'lgan. Demak, ustoz va murabbiysiz yuksak martabaga erishish qiyin. "Murid-murod, ya'ni maqsadga intiluvchi odam; murod esa Alloh taoloning vasli. Muridning asosiy xislati niyozmandlik, ya'ni talabgor bo'lish, murshidi komil etagini tutib, aytganlariga so'zsiz rioya qilishdir. Pirsiz solik manzilga yetolmaydi. Chunki odam o'zini o'zi nazorat qilishi qiyin, toki birov rahnamolik qilib, yo'l ko'rsatmasa, mushkuli oson bo'lmaydi. (Buni Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida hudhud va talabgor qushlar misolida yaxshi ko'rsatib bergan). Rahnamo bo'lmasa, hatto eng yaxshi niyatlar ham samara bermay, qalbdagi zavq-u shavq noto'g'ri yo'lda sarf bo'lishi, muhabbat isyonga aylanishi hech gap emas". [2; 24-25-b.] Zahiriddin Muhammad Bobur aytganidek: "Yo'lini topgaymu kishi to rahnamo ko'rsatmagay". [3; 25-26-b]

Aynan Navoiyning komil inson bo'lib voyaga yetishida, ilmiy-ijodiy yutuqlarga erishishida ustozlardan diniy bilimlarni puxta olgani va tasavvuf olamidan boxabarligi, naqshbandiya tariqatiga amal qilgani eng asosiy omillardan biri bo'lgan. "Majolis un-nafois" da Mavlono Binoiyga ta'rif bera turib, uning "sifati salbi uchun faqr tariyqin ixtiyor qildi va riyozatlar ham tortdi, chun piri va murshidi yo'q erdi [4. 94-95-b] deya murshidsiz murid taqdirini achinish bilan baholaydi. Chunki inson hech qachon ustozsiz barkamol bo'la olmaydi. Ustozning maslahatlari va yo'l-yo'riqlari orqali shakllana boradi.

Alisher Navoiy barkamol shaxs va daho adib sifatida ustozlarga alohida hurmat bajo keltirgan. Hazrat "Mahbub ul-qulub"ning o'n sakkizinchi fasl – "Dabiston ahli zikrida": "Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, Agar ustoz andin rozi –tengri rozidur" deydi va quyidagi baytni tamsil etadi:

"Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila" [5; 14-15-b]

(Navoiy, Mahbub ul-qulub, 1998) misralarida ustozga bo'lgan yuksak turkona ehtirom aks etgan.

Mirxondning "Ravzat us-safo" asarida yozilishicha: "Sulton Husayn Mirzo Alisherga "Siz mamlakatda qolishga rozi bo'lsangiz, nimani iltimos qilsangiz, hammasini bajaraman", degan edi. Alisher o'z iltimosi bilan Hirotidagi mashhur Xoja Abdulla Ansoriy xonaqohiga jorubkash (supuruvchi, xizmatkor) qilib tayin etildi. Abdulla Ansoriy (1006-1088) o'z zamonasining mashhur mutassavvufi, shayhi bo'lgan. Uning qabri Hirotning Gozurgohdegan mavzeida edi. Alisher Navoiy umrining so'nggini mana shu Abdulla Ansoriy qabrini obod qilishga sarflagan. Demak, shoir ijodini o'rganish va o'rgatish kelajak avlod uchun zarurdir. Bunda biz ibrat oladigan jihatlar, ya'ni ustozga bo'lgan muhabbat va sadoqat barcha insonlar uchun saboq bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xazoyin ul-maoniy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – B. 45–46.
2. Tasavvuf va komil inson axloqi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 24–25.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 25–26.
4. Majolis un-nafois. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. – B. 94–95.
5. Mahbub ul-qulub. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1998. – B. 14–15.
6. Alisher Navoiy. Arbain. – Toshkent: Fan, 1991.
7. Lison ut-tayr. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
8. Mahbub ul-qulub. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
9. Mirxond. Ravzat us-safo. – Toshkent: Sharq, 2010.
10. Qur'oni Karim. O'zbekcha ma'nolar tarjimai. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021.
11. Sahih al-Buxoriy. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019.
12. Sahih Muslim. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.